



MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-Yanvar 2022

Ma'qullandi: 20- Yanvar 2022

Chop etildi: 25- Yanvar 2022

KALIT SO'ZLAR

nafs, g'azab, iffat, shahvat, aysberg, "ID", "Ego", "Super ego", ahloq, ong, instinct, agressiya, nazorat.

Shaxsning har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash bo'yicha tadqiqot ishlarini ilmiy va nazariy asoslarini o'rganish, ularni hayotga tadbiiq qilish hozirgi kundagi dolzarb muommolardan biri hisoblanadi. Jamiyatimizning asosiy maqsadi fuqarolarini har tomonlama kamol toptirish jamiyat maqsadiga mos faoliyat ko'rsatuvchi shaxslarning tarbiyalashdir. Davlatimizning ilm fanga berilgan etibori tufayli juda ko'p ishlar amalga oshirilmoqda.

Azaldan boy ma'naviy-marifiy merosimiz xazinasini bugungi ehtiyojlar doirasida yanada boyidi. Buning sababi albatta, mamlakatimizda prezidentimiz tomonidan olib borilayotgan yuksak islohotlar samarasidir. Zero, ajdodlar

ABU HOMID G'AZZOLIY VA ZIGMUND FREYD ASARLARIDAGI PSIXOLOGIK G'OYALARNING TALQINI

Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna¹

¹ADU Pedagogika instituti "Ijtimoiy fanlarni o'qitish metodikasi"

kafedrasi o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5910168>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Abu Homid G'azzoliyning inson va uni boshqarib turuvchi tug'ma omillar to'g'risidagi qarashlari Zigmund Freydning "inson tug'ma agressiya va jinsiy mayl bilan tug'ilad33i" degan fikrlari bilan hamohangligi yoritiladi. Shuningdek, Z.Freydning shaxsni ko'rinib turadigan ongli jarayonlar psixikaning bir qismini ifoda etishi, ongsizlik esa asosining ko'p qismini egallashi xususidagi qarashlari, Abu Homid G'azzoliyning esa inson shahvat, g'azab, nafs, iffat quvvatlari bilan birga tug'ilishi haqidagi nazariyalari tahlil qilinadi.

ilimini o'rganar ekanmiz prezidentimizning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobini, "O'zbekiston va umumbashariy muammolar" bo'limidagi "Ajdodlarimiz o'z vaqtida yuksak ma'naviyatli, boy ilmiy merosi, ijod bilan butun dunyoga ustozlik qilganlar. Yana bir bor aytamanki, ular boshqalarga o'xshamagan boshqalarni o'z ortidan ergashtirganlar"-deb keltirgan bu gaplari o'z isbotini topganini guvohi bo'lamiz.

Shaxsni harakatga keltiruvchi, harakatga undovchi kuchlar irsiy yoki ijtimoiy muhit, ahloq normalari ta'sirida shakllanganligi to'g'risida juda ko'p olimlar, shu jumladan sharq mutaffakirlarimiz ham o'z ilmiy izlanishlarini olib borgan.



Bu borada S.N.Akbarova ham o'zining asarida; "Sharqda ham g'arbda ham shaxshning xulq atvori, xususiyatlari determinatsiyasida irsiy omillarning ro'li borasida qattiq bahslar davom etmoqda. Nafaqat xarakter doirasida balki umuman inson psixikasining qaysi jihati tug'ma va shakllanganligi savoli necha yuz yillar davomida ilm-fan sahnasidan tushmay kelmoqda." [5:7-bet] deb buni keltirib o'tgan.

Psixologiya fanining asosiy o'zagini tashkil qiluvchi shaxs muommosi va nazariyalari bo'yicha, o'tmish mutafakkirlaridan biri bo'lgan Abu Homid G'azzoliy hamda Avstriyalik psixolog olim Z.Freyd ta'limoti va ularning asarlaridagi mavjud ilmiy axborotlarni o'rganish, tahlil qilish ilmiy maqolamizning asosi bo'lib xizmat qiladi.

"Insonga uning ichki dunyosi qaysi qonunlar asosida boysunadi?"... kabi muammolar yechimini qidirishga harakat qiladi, yaqqol inson fazilati, o'ziga xoslik... tabiati yuzasidan bahs yuritadi. [4;104-bet]

Mutafakkirlarimiz iffat deganda o'z hissiyoti, xirs va nafsini tiyish, mo'tadillikning qonun-qoidalariga rioya qilish, har qanday ishda, faoliyatda ortiqchalikka yo'l qo'ymaslikni tushunadilar.

Islom tarixida "Hujjat-ul islom" nomi bilan mashhur olim Abu Homid G'azzoliyning "Riyoza - un nafs" kitobida keltirilishicha "adolat quvvati shahvat va g'azabni shariyat va aql ko'rsatmasi ostida ushlashdir. Aql bamisoli, yo'l ko'rsatuvchi nasihatgo'y. Adolat esa aql ko'rsatmasini bajaruvchi ichki kuch. G'azab bamisoli, ovchi it. U nafs istagidagi hayajon bilan emas, balki bitta ishora bilan chopib, bitta

ishora bilan to'xtash darajasida tarbiyaga muhtoj. Shahvat esa bamisoli, ovga miniladigan ot. U ba'zan tarbiya ko'rgan, yuvosh, ba'zan asov, qaysar;" [3;17-18-betlar] dir deyilgan.

Yana u o'z fikrini davom ettirib;

"Go'zal xulq shahvat va g'azab olovini uchiradi deyishadi. Aslida, shahvat va g'azab mijoz va tabiatning taqozosi. Odamzod bu hissiyotlardan hech qachon uzilolmaydi. Demak, ulardan uzilish uchun qilingan harakat bekorga vaqtini yuqotishdan boshqa narsa emas, chunki bu yerda qalbning o'tkinchi lazzatlarga mayl etishini qirqish talab etilayotir, bu mumkin bo'lmagan ishdir" [3;21-22-betlar] deb Z.Freyd nazariyasini u avvalroq keltirib asoslab bo'lgan ekan.

Haqiqatdan ham xilqatlar har xil, ba'zisi ta'sirni tez qabul qiladi, ba'zisi sekin. Buning 1-sababi g'ariza quvvati, ya'ni tugma sezgi quvvati. Boshqa va itoatda tutish eng qiyin bo'lgan g'ariza shahvat quvvatidir. Chunki shahvat yaralish jihatidan muqaddam, ya'ni inson chaqoloqlik paytidayoq uning fitratida shahvat quvvati yaratilgan. Bola yetti yoshlarga yetganidan so'ng, unga g'azablanish quvvati beriladi. Keyinroq unga tamyiz, ya'ni xaq bilan botilni ajratish quvvati ato etiladi. 2-sababi, inson biron amalni yaxshi deb hisoblaydi va uni ko'p qilish orqali insonda o'sha amalga muvofiq xulq shaklanadi, mustahkamlanadi. {3.23-bet} deb G'azzoliy aytib o'tgan.

Oллоh taolo aytadi: "U (taqvodor zotlar) yaxshi-yomon kunlarda infoq-ehson qiladigan, g'azablarini ichlariga yutadigan, odamlarning xatto kamchiliklarini afv etadigan kishilardir" (Oli-imron, 134).



Oyatda taqvodor zotlar haqida “g`azablarini ichlariga yutadigan ” degan ibora qo`llandi, g`azablarini yo`q qiladigan deyilmadi. G`azab va shahvat mo`tadil darajada saqlash shu darajada bo`lishi kerakki, na g`azab, na shahvat aqldan g`olib kelmasin, uni buysundirib qo`ymasin. Balki aql, g`azab va shahvatni o`z xaddida ushlab tursin. Xulqni o`zgartirish degani aslida mana shu.

Ko`p hollarda inson shahvatga bo`yin egadi, aql o`z irodasini unga topshiradi. Natijada shahvat quturib buzuqliklarga boshlaydi.

Riyozat bilan shahvatni mo`tadillikka o`rgatish mumkin.

G`azzoliyning fikricha, “Kimdadir bu hislatlar mo`tadil bo`ladi. G`azab quvvatining go`zal va mo`tadil holatidan shijoat tug`iladi. Shahvat quvvatining go`zal va mo`tadil bo`lishidan iffat hosil bo`ladi. Adolat ham nafsning holati.

Nafs undan quvvat oladi. Hikmat taqozosiga ko`ra shu quvvat, g`azab va shahvatni bosib turadi, balki boshqaradi. G`azab quvvatining xoh kuchaygan, xoh pasaygan holatda ham aql yetovida bo`lishini shijoat, aql va shariat bilan tarbiya topgan shahvat quvvati, odobini iffat dedik. Shu to`rtga asosning mo`tadilligi tufayli ahloqi go`zal yetuk shaxs bo`lishini”[3;18.19-betlar]o`z asarlarida keltirib o`tgan.

Freyd nazariyasiga ko`ra esa insonning hayotni ongli boshqaruvi umumiy psixik hayotida faqat kichkina bo`lak hisoblanadi. Uning bu fikrlarini ko`pincha aysberg bilan qiyoslashadi.

Barcha ongli jarayonlarni aysbergning suv ustidagi qismiga o`xshatilsa unda

ongsizlik muzning ancha katta ko`rinmas, suv ostidagi qismiga o`xshatiladi.

Aynan mana shu ko`rinmas massa ham og`irlik markazini ham, aysbergning harakat yo`nalishini aniqlaydi. Shunga o`xshash ongsizlik ham bizning individualligimiz, tashqi olamga munosabatimiz va vijdonimiz (“ichki ovoz”) o`rtasidagi mezonni tushunish uchun u bizning psixik xayotimiz - (id, ego va super ego) modelini ishlab chiqdi.

V.Karimova o`zining asarida;Freyd ikkita asosiy narsaga etiborini qaratdi:

- 1- Har qanday psixik jarayon yoki holat ongli, ong oldi va ongsiz bosqichlarda yoki holatlarda ro`y beradi. Shaxs tizimida ham bu uchalla bosqichning o`rni bo`lib ular “ID (u) Ego (men) va Super Ego (Mendan oily). ID psixik energiyaning o`ziga xos zahira joyi bo`lib, undagi jarayonlar inson tomonidan anglanmaydi, lekin ongli hayotga ularni tasiri katta.
- 2- Inson hulq atvorini va uning amallarini boshqarib turadigan psixik energiya borki, u shaxsning qiyofasini belgilaydi. Boshqacha qilib aytganda, ehtiyojlarini qoniqtirishga undovchi kuchlar-libido energiyasi agressiv energiyalar mavjuddir.{6:11-bet}deb e`tirof etdi.

Freyd nazariyasiga ko`ra “Id-U” o`zining daslabki quvvatini nasliy yo`l bilan oladi.[7;13]

Bizning instinktlarimiz har doim bizning ehtiyojlarimizni qondirishga intiladi. Ular, lazzat tamoyili, deb ataladigan narsaga bo`ysunadilar. “Id-U”



ning individni faollashtiradigan boshqa funksiyalari ham bor.

Ular oldingi siqib chiqarilgan kechinmalaridan paydo bo`ladi.

Freyd ongda siqib chiqarilgan, biroq odamni faollashtiradi davom etayotgan g`oyalar, harakatlar va tuyg`ularni "xotirlash" haqida gap yuritadi. Sabab va oqibatlarini tushunmasak, ular bizning harakatga undaydi, depressiya holatiga olib keladi yoki hayol va fantaziyalarni keltirib chiqaradi.

Bir so`z bilan aytganda "Id" ya'ni "U" bilan birgalikda "ego-men" ham rivojlanib boradi. Psixoanalizda aql sifatida "ego-men" taqdim qilinadi. "Ego-men"ning eng muhim vazifasi o`zini saqlash. Bundan tashqari, u ehtiyojlarini xavfsiz qondirishni ham ta'minlashi kerak.

"Ego-men" instinktlari siqib chiqarish yoki to`xtatib turish to`g`risida qaror qabul qiladi. U, reallik tamoyiliga buysunadi. Demak, "ego"ID ning talablari va tashqi dunyo o`rtasida vositachi bo`lishi kerak.

Freyd bir necha marta sub'ekt o`ziga ob'ekt sifatida qaray olishi va shu asosda o`ziga nisbatan tanqidiy va sog`lom g`oyalar ishlab chiqishiga hayrat bilan qaragan edi.

Olim bunday qobiliyat egoning boshqa qobiliyatlaridan keyingiroq bosqichda paydo bo`lishini ta'kidlaydi. U bolalardagi ijtimoiylashuv jarayonida asta-sekin paydo bo`lishini aytadi.

Super ego - ota-ona me'yorlari va ideallarini anglamasdan internorizatsiya (o`zlashtirish) natijasidir. Bir muncha kengroq ma'noda ahamiyat va an'ana o`zlarining ahloqiy xokimiyatini biz

"vijdon" deb ataydigan narsa yordamida amalga oshiriladi.

Aytish mumkinki, super ego egoni nazorat qilib turadi, unga "tavsiyalar" berib turadi va jazolash bilan "po`pisa" qiladi. Super ego egoning faqat o`z hatti-harakatlari to`g`risida emas, xattoki fikrlar va hoxishlari to`g`risida ham hisobot berishni talab qiladi. Demak, super ego, ego hisobga olishi lozim bo`lgan uchinchi kuchdir" **{2:120-bet}deb keltirib o'tgan.**

M.Otajonov ham Z.Freydni shaxs muommolari, ziddiyatlari to`g`risidagi nazariyalarini o`rganar ekan o`zining "Psixoanaliz asoslari" o`quv qo`llanmasida;

"U", "Id" ong osti yoki ongsizlik sohasi, instinktiv mayllar to`plami, "men"-bu "ego" shaxs, ong.

"Yuqori-men", "Super-ego", ijtimoiy ahlok, hatti-harakat normalari, ijtimoiy ong, xulq.

"U" ongsizlik sohasidan iborat, uning hukmron prinsipi "Lazzatlanish" prinsipidir.

"Yuqori-men"da norma va qadriyatlar majmuasidir. Bular tarbiya va ota-ona tomonidan bolaga singdiriladigan xulq-atvor shakllarining natijasidir.[7;23-24]deb keltirib o'tgan.

Shunday qilib, Freyd odam tug`ma jinsiy mayl, agressiya va shavqatsizlik ehtiyojiga ega, deb hisoblardi. Agressiya bu-barcha odamlarga hos bo`lgan tug`ma, mustaqil instinkt.

Mutafakkirlarimizning ahloqiy ta'limotini tahlil etish shuni ko`rsatadiki, ular shahvatning jilovlashni mo`tadil ushlaydigan iffat deb atashgan. G'azzoliyning



iffat to'g'risidagi fikrlari Zigmund Freydning nazariyalariga to'g'ri keladi.

Bundan kelib chiqadiki, Z. Freyd nazariyasidagi "Id-U" - shahvat quvvati, agressiya- g'azab, super ego-bu ijtimoiy me'yorlar va ahloq tarbiyasi-iffat, "ego-men"- bu aqlimizdir.

Z. Freyd nazariyalaridagi shaxs tug'ma jinsiy mayl va agressiya bilan tug'uladi degan g'oyalarini XX-asrga kelib tadqiq qilgan bo'lsa, sharq mutafakkirlaridan biri Abu Homid G'azzoliy esa o'zining "ixyou-ulumid-din" asarining 3-bo'limidagi "riyozatun nafs" kitobida bundan 10 asrlar muqaddam sharhi keltirib o'tilgan. Azaldan bilamiz-ki sharq o'zining buyuk mutaffakkirlar bebaho asarlari ila o'sha davr va fan madaniyatiga munosib hissa qo'shibgina qolmay, sharq-yuksak madaniyat va ma'naviyat o'chogi ekanligini isbotladilar. O'sha davrda ular yaratgan g'oyalar necha asrlar o'tgandan keyingina g'arb olimlari tomonidan kashf qilinib, nazariyaga aylandi. Vaholan-ki ular yaratgan nazariyalarining ildizlari sharqqa kelib taqaladi. A.X.G'azzoliy ziddiyatlarga to'la inson tabiatini ichki sabablar belgilashni islom dini misolida izohlaydi. "Tashqaridan alohida-alohida ko'ringan a'zolarining ko'z ilg'amas daqiq, ammo o'zaro chambarchas bog'langan umumiy tomonlarini topadi va yuzaga toshib chiqqan "yara"larning manbai ichkarida ekanligini anglatadi." [3:5-bet]

S.N.Akbarova ham o'zining asarida; "Psixogenetikaning asosiy vazifasi ham individual psixologiya farqlar shakllanishida tashqi muhit va nasliy omillarining nisbiy qo'shgan hissasini aniqlashdir" [5:42-bet] deb e'tirof etgan.

Z. Freydni ba'zi bir g'oyalari G'azzoliyning fikrlarini g'arbona yo'nalishda yoritilib, bo'rttirib berilgan ko'rinishi desak ham bo'ladi.

Xulosa qilsak, inson psixologiyasi muammolari, o'z-o'ziga va bir-biriga munosabatlari inson tafakkuri va ma'naviyati kabi masalalar qadimiy va dolzarb bo'lib kelgan. Inson o'zligini ro'yobga chiqarish o'ziga bog'liq ekanligini qancha tez tushunib yetsa, u hayotga shunchalik chuqurroq qaraydi va oldiga muhimroq maqsadlar qo'yadi.

Yoshlarni tarbiyalashda ular ruhiyatiga o'z-o'zini anglash tuyg'ularini singdirish orqali psixologik yetuklikka erishuvini ta'minlash muhimdir. Bu tuyg'u biologik hodisa emas, balki ijtimoiy hodisadir. Chunki bu tuyg'u insonning ma'naviy shakllanishi jarayonida voyaga yetadi.

Zero, yosh avlodni ma'nan va ruhan kamol toptirish, ularda hayotga, milliy-madaniy merosimizga nisbatan faol munosabatni shakllantirish, ularning ma'naviy sog'lom, ruhan tetik rivojlanishi, kelajagi buyuk davlatni qurish yo'lidagi muhim poydevorlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi"
2. Z. Freyd "Основные принципы психоанализа" М. 1998 – с.120
3. Abu Homid G'azzoliy "Riyozatun-nafs" Toshkent-2006-yil
4. G'oziyev E "Oliy maktab psixologiyasi" T.O'qituvchi-1997-yil
5. S.N.Akbarova "Shaxs xarakterining tashqi belgilari" Toshkent-2015



6. V.Karimova "Psixologiya" O'quv qo'llanma-Toshkent-2002-yil
7. M.Otajonov 'Psixoanaliz asoslari' T.O'zbekiston.2004-yil.